**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat tibbiyot tashkilotlarda moliyaviy aktivlarning tarkibi, ularning harakati va hisobga olishning zarurligi nazariji jihatdan yoritilgan. Davlat tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bilan bog'liq moliyaviy aktivlarning harakatini hisobga olishning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Davlat tibbiyot muassasida moliyaviy aktivlarning maqsadli va manzillini yo'naltirilishi, ular yuzasidan tahliili buxgalteriya axborotlarini shakllantirish, nazoratini amalga oshirish tartibini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya, mablag'lar, moliyaviy aktiv, nazorat, smetalar ijrosi, hisobot.

**Abstract:** This article theoretically explains the composition of financial assets of state medical organizations, their movement and the need for accounting. The features of accounting for the movement of financial assets related to budgetary and extra-budgetary funds in state medical organizations have been studied. A scientific proposal and practical recommendations have been developed in connection with the targeted and targeted orientation of financial resources in a public medical institution, the formation of analytical accounting information and the improvement of their control.

**Key words:** accounting, inventories, funds, financial asset, control, budget implementation, report.

**Аннотация:** В данной статье теоретически объяснен состав финансовых активов государственных медицинских организаций, их движение и необходимость учета. Изучены особенности учета движения финансовых активов, относящихся к бюджетным и внебюджетным фондам, в государственных медицинских организациях. Разработаны научное предложение и практические рекомендации в связи с целенаправленной и целенаправленной ориентацией финансовых средств в государственном медицинском учреждении, формированием аналитической учетной информации и совершенствованием их контроля.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, запасы, фонды, финансовый актив, контроль, выполнение сметы, отчет.

## KIRISH

Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish borasida xalqaro miqyosda qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining 2021-yil iyul oyidagi hisobotiga ko'ra, "Dunyo mamlakatlarda pandemiya vaqtida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish hajmi 4-5, dori-darmon va tibbiy vositalarni xarid qilish esa, 9-11 barobardan ortib ketdi" [5]. Dunyo amaliyotida davlat sektoridagi tashkilotlarni moliyalashtirish davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarining shaffofligi bilan bog'liq. Shu sababdan ham, jahonning aksariyat mamlakatlarda byudjet ijrosi hisobi va hisobotini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish, davlat sektorida hisobni tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda uni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, moliyaviy nazorat va auditni takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu borada, davlat tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning uslubiy jihatlari, mablag'lardan maqsadli, manzilli va samarali foydalanish yuzasidan axborotlarning aniqligi, tibbiyot muassasalarida mablag'lardan maqsadli foydalanishda ichki nazorat tizimining rolini kuchaytirish, ma'lumotlarning ishonchiligidini ta'minlash bo'yicha qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, pandemiya sharoitida tibbiyot muassasalarida tibbiy xizmatlar tannarxi hisobi, mablag'lar sarfiga oid hisob va hisobotlarning axborot imkoniyatini kengaytirish hamda ishonliligidini ta'minlash, moliyaviy nazorat tizimini yaxshilash bilan bog'liq hal etilishi zarur bo'lgan jihatlar mavjud.



Mamlakatimizda ham byudjet hisobi va davlat moliyaviy nazorati sohasini isloh etishda “tibbiyot muassasalarida byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi tibbiyot muassasalarida byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamnaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish”<sup>[1]</sup>, byudjet tashkilotlarining hisob axborot tizimini davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimiga integratsiya qilish orqali axborotlarning ishonchliligi va tahlil imkoniyatlarini oshirishni taqozo qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Byudjet hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy asoslarini tadqiq etish hamda takomillashtirish yuzasidan bir qancha xorijlik olimlar ilmiy-tadqiqot olib borishgan. Ular jumlasiga xorijlik olimlardan Andreea Cîrstea, Jan van Helden, Ron Hodges, Е.Федченкolar[6, 7, 8]ni kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.Kuliboev, S.Mehmonov, Z.Xamidova, Sh.Qurbanov, B.Hamdamovlar [9, 10, 11, 12, 13]ning asarlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirishning yo'naliishlari hamda ularni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan tibbiyot muassasalarida moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari kompleks hamda tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan, ilmiy-amaliy muammollar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

## TADQIQOT USULLARI

Davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi va nazorati borasida amalga oshirilgan mazkur izlanishda abstrakt mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, monografik kuzatuv, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiyot sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat byudjetidan moliyalashtirish hajmining ortishi va sog'iqliqi saqlash tizimining rivojlanishi natijasida davlat tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning turlari ham kengayan. Bunda, tibbiy xizmatlar ambulator, statsionar va umumiylar sharoitda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarga ajratiladi. Statsionar sharoitda xizmat ko'rsatiladigan muassasalarda bir vaqtning o'zida ambulator tibbiy xizmatlar ham ko'rsatiladi. Shu sabab, ushbu tibbiyot muassasalari faoliyatida ularni moliyalashtirish jarayonida o'ziga xos xususiyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Tibbiyot muassasalari o'z funksiyalarini to'liq bajarishda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishi uchun uzluksiz ravishda dori-darmon va yarani bog'lash vositalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi, moddiy-teknik bazani yaxshilash, sifatlari tibbiy xizmatlarni amalga oshirishda debitorlik va kreditorlik qarzlar yuzasidan hisob-kitoblarni o'z muddatida amalga oshirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari pul mablag'larga zaruriyat tug'iladi. Tibbiyot muassasalari pul mablag'larini g'aznachilikda ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda yuritadilar. G'azna ijrosiga o'tmagan davlat tibbiyot muassasalari pul mablag'larini banklarda ochilgan hisobvaraqlarda yuritilmoqda.

Davlat tibbiyot muassasalarini ham o'z navbatida, davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtirilishiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchidan, to'liq yoki qisman davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari. Bu turdag'i davlat tibbiyot muassasalarining byudjet mablag'larini g'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Ikkinchidan, hukumat qarori asosida tashkil etilgan, ta'sischisi davlat hisoblangan davlat tibbiyot muassasalari. Bu turdag'i davlat tibbiyot muassasalari byudjetdan moliyalashtirilmasdan, aholiga faqat pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatadi. Pul mablag'larini tijorat banklarida ochilgan hisobraqamlarda yuritiladi.

Davlat tibbiyot muassasalarining xarajat guruhlari bo'yicha davlat byudjeti mablag'larini hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga asosan moliyalashtiriladi.

Birinchi navbatda, davlat tibbiyot muassasalarining smetasida I va II guruh xarajatlari bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi. Lekin, II guruh xarajatlari bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmasdan turib, I guruh xarajatlarning to'lovini amalga oshirishga ruxsat berilmaydi. Tegishli byudjet bo'yicha g'azna hisobvaraqlarda I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarni to'liq amalga oshirgan davlat tibbiyot muassasalari uchun III va IV guruh xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beriladi<sup>[2]</sup>.



Xarajatlar smetasining kassa ijrosi hisobini yuritish xarajat moddalari bo'yicha tibbiyot muassasasi faoliyatida pul mablag'larining sarflanishi yuzasidan axborotlarni ochib berishga qaratilgan bo'lsa, haqiqiy xarajatlar hisobini yuritish esa, mablag'lar va ularning manbalari bilan bog'liq haqiqiy holatni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Demak, xarajatlar smetalari ijrosi hisobi bilan bog'liq holda kassa xarajatlar va haqiqiy xarajatlar hisobiga oid ko'rsatkichlarni tahlil qilish zaruriyati vujudga keladi. 1-jadvalda davolash muassasasining so'nggi 5 yillik-dagi xarajatlar smetalari kassa ijrosiga oid ma'lumotlarni ko'rib o'tamiz.

**1-jadval: Davlat tibbiyot muassasasida byudjet mablag'lari hisobidan davriy moliyalashtirish to'g'risida ma'lumot (ming so'm)<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Kassa xarajatlar	Xarajatlar tarkibidagi ulushi (%)	Kassa xarajatlar	Xarajatlar tarkibidagi ulushi (%)	Kassa xarajatlar	Xarajatlar tarkibidagi ulushi (%)	Kassa xarajatlar	Xarajatlar tarkibidagi ulushi (%)	Kassa xarajatlar	Xarajatlar tarkibidagi ulushi (%)
I-guruh. "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar"	3 274 077,7	36,1	5 090 593,7	54,8	5 440 966,9	58,1	6 933 641,3	58,2	8 981 250,9	56,0
II-guruh. "Ish haqiga qo'shimchalar"	790 521,6	8,7	1 221 035,9	13,1	1 310 992,5	14,0	1 612 209,1	13,6	2 184 244,3	13,6
IV-guruh. "Boshqa xarajatlar"	5 006 472,5	55,2	2 978 448,2	32,1	2 606 089,9	27,9	3 361 867,5	28,2	4 873 611,5	30,4
Shundan,										
Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	2 370 875,4	26,1	2 439 008,2	26,3	2 606 089,9	27,9	3 361 867,5	28,2	4 818 614,5	30,1
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	67 789,0	0,8							54 997,0	0,3
Ijtimoiy nafaqlar	2 567 808,1	28,3	539 440,0	5,8						
<b>Jami</b>	<b>9 071 071,8</b>	<b>100</b>	<b>9 290 077,8</b>	<b>100</b>	<b>9 358 049,3</b>	<b>100</b>	<b>11 907 717,9</b>	<b>100</b>	<b>16039106,7</b>	<b>100</b>

2018–2022-yillarda muassasani byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishda I va II guruhlar bo'yicha xarajatlarning salmog'i oshib, ya'ni I guruh xarajatlarini moliyalashtirish 2018-yilda umumiylar xarajatlarni 36,1 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu 56 foizgacha o'sgan. II guruh xarajatlari ham 2018 yilda umumiylar xarajatlarni 8,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 13,6 foizgacha oshgan. Markazning IV guruh xarajatlarini 2018–2022-yillardagi moliyalashtirish holati aksincha, pasayganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdi. Mazkur ko'rsatkich 2018-yilda 55,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 30,4 foizni tashkil etgan hamda so'nggi to'rt yil davomida 14,3 foizga qisqargan.

Barcha byudjet tashkilotlari singari davlat tibbiyot muassasalariga ham faoliyat turi bo'yicha pullik tibbiy xizmat ko'rsatish, muassasa xodimlarini moddiy rag'batlantirish hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun moddiy-texnika bazasini mustahkamlash imkoniyati berildi. Bu borada tadqiqot obyekti faoliyatida ham pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilgan (2-jadval).

<sup>1</sup> Tadqiqot obyekting moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida mualif tomonidan tuzilgan



**2-jadval:** Davlat tibbiyot muassasasida rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari tushumining davriy o'zgarishi (ming so'm)<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2018-yilga nisbatan 2022-yildagi o'zgarish summa
faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovar (ish, xizmat) larni realizatsiya qilishdan	5 632 060,9	7 144 586,9	10 789 726,5	7 289 665,5	15 453 817	9 821 756,1
byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijara berishdan	38 169,7	32 388,4	76 683,8	69 896,9	15 663,6	- 22 506,1
homiylikdan olingan				29 880,0	315	315
boshqa tushumlar			39 503,7	83 520,7		
<b>Jami</b>	<b>5 670 230,6</b>	<b>7 176 975,3</b>	<b>10 905 914</b>	<b>7 472 963,1</b>	<b>15 469 795,6</b>	<b>9 799 565</b>

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin, 2018–2022 yillarda muassasaning byudjetdan tashqari pul mablag'lari tushumi o'sgan. Muassasa faoliyatining o'ziga xos jihatlarini byudjetdan tashqari daromadlari tarkibi hamda faoliyat ixtisosligi pullik tibbiy xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlarida ko'rishimiz mumkin. 2018–2022-yillarda pullik tibbiy xizmat ko'rsatishdan olgan daromadlarining ulushi byudjetdan tashqari jami daromadlari tarkibida yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. 2018–2022-yillar mobaynida pullik tibbiy xizmat ko'rsatishdan olgan pul tushumlari 99,3 foizdan 99,9 foizgacha oshganligini ko'rishimiz mumkin. Faqtiniga, 2021 yilda pul tushumlari 97,5 foizga tushgan.

O'z navbatida, muassasaning 2018–2022-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asosan rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning tarkibini ko'rib o'tamiz (3-jadval).

**3-jadval:** Byudjet tashkilotida rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari hisobidan xarajatlarni moliyalashtirilishi dinamikasi (ming so'm)<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Xarajatlar	Jami xarajatlar tarkibidagi ulushti (%)								
I-guruh. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	1384943,8	24,5	1935693,7	27,1	2573417,5	26,0	2549319,9	31,5	3964385,7	25,4
II-guruh. Ish haqiga qo'shimchalar	338485,1	6,0	473338,6	6,6	621319,1	6,3	610534,6	7,5	968393,5	6,2
III-guruh. Kapital qo'yilmalar									179 713,8	1,2
IV-guruh. Boshqa xarajatlar	3922496,1	69,5	4728650,4	66,3	6695777,2	67,7	4938580,6	61,0	10492523,9	67,2
shundan,										
Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	3203142,7	56,7	4137783,3	58,0	5055398,3	51,2	3753940,3	46,4	7656607,2	49,1
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	643382,8	11,5	405586,3	5,7	1458438,4	14,7	1091722,4	13,5	402692,5	2,6

2 Tadqiqot obyektiining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 Tadqiqot obyektiining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Boshqa xarajatlar	75970,6	1,3	185280,8	2,6	181940,5	1,8	92 917,8	1,1	2433224,1	15,5
Jami	5645925	100	7137682,7	100	9890513,8	100	8098435,1	100	15605016,9	100

2018–2022-yillarda muassasada xarajatlar guruhi kesimi bo'yicha moliyalashtirishda farqlanish mavjud. 2018-yilda I- va II-guruh xarajatlari umumiy xarajatning 30,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, IV-guruh xarajati esa 69,5 foizga teng bo'lgan. 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar I- va II-guruh xarajatlari umumiy xarajatlarning 31,6 foizini, III-guruh xarajatlar 1,2 foizini, IV-guruh xarajatları esa, 67,2 foizni tashkil etgan. Faqatgina, 2022-yilda III-guruh kapital qo'yilma (ta'mirlash) bo'yicha xarajatlar uchun moliyalashtirish amalga oshirilgan.

Muassasaning xarajatlarini byudjetdan tashqari mablag'lar bilan moliyalashtirishdagi bunday farqlanishlarni quyidagicha izohlash mumkin. Byudjetdan tashqari mablag'larning sarflanishi har xil. Muassasada byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar muassasaning rivojlantirish jamg'armasi daromadlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Muassasada tibbiy xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi xizmat ko'rsatishda zarur bo'ladigan hisob obyektlarini moliyalashtirish manbalari bilan bog'liqlikda tahlili hisob axborotlarini shakllantirishni talab etadi. Shuningdek, pullik tibbiy xizmatlardan tushumlar tadqiqot obyekti faoliyati yuqori ulushga ega bo'lganligi tibbiy xizmatlarni ambulator va statsionar tibbiy xizmatlarga guruhlashtirgan holda alohida hisobini yuritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ambulator va statsionar pullik tibbiy xizmatlar bilan bog'liq holda pul mablag'lari tushumi va ushbu mablag'larning sarflanishi to'g'risida axborotlarni shakllantirish muassasada tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida moliyaviy aktivlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash hamda ularning harakatini tahlil qilishga xizmat qiladi. Buning uchun esa, tibbiy xizmatlarni guruhlashtirib ularga oid analistik hisob ishlarini yuritish hamda uzlusiz nazorat qilib borishni talab qiladi.

Muassasada pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari hisobini yuritish uchun 102 401/1 (112/1) "Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari" hamda 102 401/2 (112/2) "Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari" ishchi schyotlari[3, 4]dan foydalanish zarur. Ushbu ishchi schyotlarning boshqa schyotlar bilan bog'lanishini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

1. Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'larining kirimini hisobga olish:

Debet 102 401/1 (112/1) "Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari";

Kredit 151 210 (152/1) – "Byudjet tashkilotlarining xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debtor qarzları".

2. Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'larining kirimini hisobga olish:

Debet 102 401/2 (112/2) "Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari";

Kredit 151 220 (152/2) – "Byudjet tashkilotlarining xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debtor qarzları".

Mazkur ishchi schyotlarni qo'llash natijasida markaz faoliyat yo'nalishlariga mos tarzda statsionar va ambulator tibbiy xizmatlardan tushgan pul mablag'larini alohida hisobga olish imkoniyatini beradi.

Tibbiyot muassasasida pullik tibbiy xizmatlardan tushgan naqd pul mablag'lari hisobini yuritish uchun 109 101 (120/1) "Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'lari" hamda 101 102 (120/2) "Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'lari" ishchi schyotlari[3, 4]ni qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu ishchi schyotlarning boshqa ishchi schyotlar bilan bog'lanishini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

1. Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'larining kirimini hisobga olish:

Debet 109 101 (120/1) "Statsionar pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'lari";

Kredit 151 210 (152/1) – "Byudjet tashkilotlarining xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debtor qarzları".

2. Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'larining kirimini hisobga olish:

Debet 101 102 (120/2) "Ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha naqd pul mablag'lari";

Kredit 151 220 (152/2) – "Byudjet tashkilotlarining xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debtor qarzları".

Mazkur ishchi schyotlarni qo'llash natijasida satatsionar hamda ambulator tibbiy xizmatlar ko'rsatish orqali kirim qilinadigan naqd pul mablag'larini alohida hisobga olish yo'liga qo'yilib, naqd pul mablag'lari bo'yicha joriy davr uchun analistik buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Muassasaning pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari tushumiga oid ko'rsatkichlarini "Rivojlantirish jamg'armasining pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi ichki hisobotda "Statsionar tibbiy xizmatlardan tushumlar" hamda "Ambulator tibbiy xizmatlardan tushumlar" nomli alohida satrlarda aks ettirish maqsadga muvofiq.



Bu orqali muassasaning statsionar ambulator pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha pul mablag'lari tushumiga oid davriy xisobot ko'rsatkichlarini umumlashtirish, tibbiy xizmatlarning turlariga oid mablag'lar tushumini davriy tahlil qilib borishga xizmat qiladi.

Muassasaning hisob siyosatida muassasada pullik tibbiy xizmatlar turlari va ular bilan bog'liq naqd pul tushumlari hajmining yuqoriligini inobatga olib kassadagi naqd pul mablag'larini har o'n besh kunda bir marotaba inventarizatsiyadan o'tkazishni belgilash zarur.

Bu orqali, pullik tibbiy xizmat ko'rsatishdan kirim qilinadigan naqd pul mablag'larining haqiqatda amalga oshirilgan xizmatllar bilan bog'liqlikda xujjatlashtirilishi, bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar davriyligi bilan mos xolda naqd pul mablag'larini uzlusiz nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Muassasa hisob siyosatida kassadagi naqd pul mablag'larini inventarizatsiyasini o'tkazishda bemorlarning amalga oshirgan to'lovlarini shifokorlar tomonidan berilgan tashxislar hamda laboratoriya tekshiruv natijalari bilan taqqoslash orqali nazorat va hisobdorlikni oshirish tartibini kiritish zarur.

Bu orqali, muassasada shifokorlar tomonidan yozilgan tashxislar hamda laboratoriya tekshiruv natijalari asosida bemorlar tomonidan to'lanadigan naqd pul mablag'larini to'liq kirim qilinishi hamda ichki nazorat tizimining mustahkamlanishiga hizmat qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagい PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyat muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
3. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 2169-son yo'riqnomma. O'zbekiston Respublikasi
4. Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrdagi 105-sun buyrug'iga ILOVA. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010-yil, 51-sun, 502-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejası"ni tasdiqlash to'g'risida. [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 20-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3078]. lex.uz/docs/-4008308
6. World Health Organization (WHO). 2021. Health financing for the COVID-19 response: process guide for national budgetary dialogue. ACT-A Health Systems Connector. Geneva, July. <https://www.who.int/publications/item/9789240030527>
7. Andreea Cîrstea. The Need for Public Sector Consolidated Financial Statements. Procedia Economics and Finance. Volume 15, 2014, Pages 1289-1296
8. Jan van Helden., Ron Hodges. Public Sector Accounting and Budgeting for Non-Specialists 2016th Edition. USA. –256 p.
9. Федченко Е.А. Методология анализа и контроля эффективности использования бюджетных средств государственными учреждениями. Автореферат дисс. д.э.н. Российский экономический университет имени Г.В.Плеханова. Москва, 2017.-48 с.
10. Kuliboyev A.Sh. Davlat tibbiyat muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 61 b.
11. Mehmnov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metedologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati.– T.:TMI, 2018. –76 b.
12. Xamidova Z.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. –T.:TMI, 2021. –58 b.
13. Qurbonov Sh.M. Davlat tibbiyat tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati.– T.: TMI., 2022. –58 b.
14. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", –318 b.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

